

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN SIYOSIY HARAKATI

SARDOR MUROD O'G'LI XUSANOV

ChDPU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi 4-bosqich talabasi

ANOTATSIYA: Ushbu maqolada asosan yurtimizda yagona bo'lgan iqtisodiy partiya-O'zbekiston Liberal Partiyasi qay tartibda tashkil etilgani hamda bu siyosiy partiya hozirgi kunda nechoqlik yurtimizga foyda keltirayotgani haqida mulohaza yuritiladi. Shu bilan birgalikda partianing ishlariga neytral baho beriladi.

Kalit so'zlar: Liberal, siyosiy, partiya, global, iqtisodiyot.

ABSTRACT: The article discuss how the Liberal party of Uzbekistan, the only economic party in our country, was established and how this political party is currently benefiting to our state. At the same time, the work of the party is given a neutral assessment.

Keywords: Liberal, political,party, global, economy.

Hozirgi kunda har millat oldida globallashuv termini hayot faoliyatining bir qismi bo'lib qolgan desak adashmagan bo'lamiz naznimda. Bunday global hayotda rivojlanishning birdan bir kaliti bu-iqtisodiyotdir. Shu sababdan ham mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida siyosiy taraflama qarashga harakat qilmoqda va bu uchun yurtimizda siyosiy partiya bo'lmish-O'zbekiston Liberal Partiyasi tashkil etildi.

Avvalo, 2003 yil 4-5-oktabr – bir guruh tashabbuskorlar – kichik biznes vakillari, tadbirkorlar va fermerlardan iborat mulkdorlar qatlami, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassislari hamda boshqaruv xodimlari, ishbilarmonlar manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan umummilliy siyosiy tashkilot, ya'ni partiya tuzish tashabbusi bilan chiqishdi.

Shundan so'ng, 2003 yil 15 noyabr — Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining Ta'sis S'ezdi bo'lib o'tdi. Unda partiya Dasturi va Ustavi tasdiqlandi, Siyosiy Kengash hamda Markaziy nazorat-taftish komissiyasi tarkibi saylandi.

Shu kuni Toshmatov Qobiljon Fattoxovich Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi etib saylandi.

2003-yil 3 dekabr — Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tdi.

Tashkil etilganidan so'ng, mamlakatimizda iqtisodiy taraflama yuksalish nafaqat bizga balki jahon iqtisodiy statistik xodimlari ham buni payqashmoqda. Xususan, mamlakatda 2022- yil yakuni bo'yicha yalpi ichki mahsulot hajmi qariyb 888.4 trln so'mni tashkil etdi va bu mamlakatimiz iqtisodiyoti tarixida eng katta YIMdur. Bunday rivojlnish tagida albatta UZLIDEP turganihech kimga sir emas. Taqqoslash uchun, shu yilda Xitoyda YIM 3 foizni, Qozog'istonda 3,6 foizni tashkil etgan.

Keling bu partianing asosiy maqsadlari haqida to'xtalsak, Siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkor va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish,

jamiyatning ushbu tabaqasi manfaatlarini himoyalash barobarida uning ertangi kunini ta'minlash.

Partiyaning davlat boshqaruvi, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta'sir o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirokini ta'minlash. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan bog'liq muammolarni hal qilish, O'zbekistonning xalqaro obro'yini oshirishda, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish. Yoshlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, o'z elim, o'z yurtim, jon O'zbekistonim, deya g'ururlanib yashash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shish, har qanday sharoitda mustaqillik yo'limiz, qadriyatlarimiz, milliy va diniy an'analarimiz, urf-odatlarimizni qadrlash, shu bilan birga, barcha millat va elatlar qadriyatlarini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, bunday xurujlarga qarshi izchil kurash olib borish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, siyosiy partiyalar qanchalik ijtimoiy, siyosiy taraflama mamlakatga foydasi tegsa shuqadar iqtisodiy partiya (UzLIDEP) ham mamlakatga shu qadar foydali desak yanglishmagan bo'lamiz. Basharti, siyosiy partiya xalq manfaati elchisidur.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. <https://uzlidep.uz/uz/about-the-party>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Liberal_demokratik_partiyasi
3. <https://www.stat.uz/uz/>
4. <https://daryo.uz/2023/01/23/2022-yilda-ozbekiston-iqtisodiyoti-qanday-rivojlangani-tahlil-qilindi>
5. <https://parliament.gov.uz/fractions/1>